ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Nemis tilidagi animalistik frazeologizmlarning o'zbek tiliga tarjima qilish prinsiplari

O'zMU talabasi: **Fuzuliyeva Mohichehra**
Ilmiy rahbar: o'qit. **Achilova Nilufar**

Annotatsiya. Mazkur maqolada nemis tilidagi animalistik frazeologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilish prinsiplari lingvistik va madaniy mezonlar asosida tahlil qilinadi. Frazeologik birliklar tarjimasida yuzaga keladigan semantik noaniqliklar, madaniyatlararo tafovutlar hamda ekvivalentlik darajalari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Xususan, nemis tilidagi hayvon nomlari ishtirokidagi iboralarning o'zbek tilidagi funksional va semantik muqobillari aniqlanadi. Maqolada tarjima strategiyalari – to'g'ridan-to'g'ri tarjima, funksional almashtirish, kontekstual moslashtirish hamda izohli tarjima usullari orqali frazeologizmlarni o'zbek tiliga muvaffaqiyatli o'tkazish yo'llari taklif etiladi. Shu bilan birga, maqolada nemis va o'zbek milliy mentalitetidagi farqlar frazeologik ifodalarga qanday ta'sir ko'rsatishi ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari tarjima jarayonida animalistik frazeologizmlarning milliy-madaniy mazmunini saqlagan holda, ularni o'zbek tiliga samarali tarzda o'tkazish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: animalistik frazeologizmlar, tarjima nazariyasi, nemis tili, o'zbek tili, madaniyatlararo kommunikatsiya, frazeologik birliklar, tarjima usullari, semantik ekvivalentlik, milliy-madaniy xususiyatlar, idiomatik ifodalar.

PRINCIPLES OF TRANSLATING GERMAN ANIMALISTIC PHRASEOLOGISMS INTO UZBEK"

UzMU student: Fuzuliyeva Mohichehra
Scientific supervisor: Lecturer Achilova Nilufar

Annotation. This article explores the principles of translating German animalistic phraseological units into Uzbek based on linguistic and cultural criteria. It analyzes the semantic ambiguities, intercultural differences, and levels of equivalence that arise in the process of translating idiomatic expressions. In particular, the study identifies functional and semantic equivalents of German idioms involving animal names in the Uzbek language. Various translation strategies—such as literal translation, functional substitution, contextual adaptation, and explanatory translation—are examined as effective methods for conveying these expressions into Uzbek. Furthermore, the article highlights how differences in national mentality between German and Uzbek cultures influence the interpretation and usage of phraseological units. The research findings serve as a scientific basis for accurately and effectively translating animalistic idioms into Uzbek while preserving their cultural and figurative meaning.

Keywords: animalistic phraseologisms, translation theory, German language, Uzbek language, intercultural communication, phraseological units, translation methods, semantic equivalence, cultural-specific features, idiomatic expressions.

ПРИНЦИПЫ ПЕРЕВОДА НЕМЕЦКИХ АНИМАЛИСТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК"

Студентка УзГУ: Фузулиева Мохичехра
Научный руководитель: преподаватель Ачилова Нилуфар

Аннотация. В данной статье анализируются принципы перевода немецких анималистических фразеологизмов на узбекский язык на основе лингвистических и культурных критериев. Научно рассматриваются семантические неопределенности,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

межкультурные различия и уровни эквивалентности, возникающие при переводе фразеологических единиц. В частности, определяются функциональные и семантические аналоги немецких выражений с названиями животных в узбекском языке. В статье предлагаются стратегии перевода – прямой перевод, функциональная замена, контекстуальная адаптация и пояснительный перевод – как способы успешного переноса фразеологизмов в узбекский язык. Также освещается влияние различий в немецком и узбекском национальном менталитете на фразеологические выражения. Результаты исследования служат научной основой для эффективного перевода анималистических фразеологизмов на узбекский язык с сохранением их национально-культурного содержания.

Ключевые слова: анималистические фразеологизмы, теория перевода, немецкий язык, узбекский язык, межкультурная коммуникация, фразеологические единицы, методы перевода, семантическая эквивалентность, национально-культурные особенности, идиоматические выражения.

Frazeologiya – ma’lum bir tildagi turg’un so’z birikmalari bilan shug’ullanadigan tilshunoslikning yangi sohasi. Frazeologiya bu tildagi frazeologizmlarning yig’indisidir. Frazeologiya – tilning frazeologik burilishlari va ularning tipologiyasini o’rganadigan fan. 16-asrda paydo bo‘lgan “Frazeologiya” atamasi yunoncha “Frazis” (“ifoda, ibora, jumla”), “Logos” (“so‘z, tushuncha”) va “-logia” (biror narsa haqidagi ta’lim yoki fan) hamda umumiy holatda "iboralar va turg'un birikmalarni o‘rganish” kabi ma’noni anglatadi[1].

Dunyoda o'z frazeologiyalariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini frazemlar shaklida avlodlarga qoldiradi. Bizning taxminimizcha, har bir frazemning vujudga kelishida birorta ibratli voqeaning ahamiyati kattadir. Ana shunday hayot lavhasiga guvoh bo'lgan dono odamlardan biri ko'rgan-kechirganlariga xulosa yasab, maqolnamo g'oyani yoki frazeologiyani o'ylab topgan. Keyinchalik hayotiy vaziyatning takrorlanishi oqibatida birinchi aytilgan fikr asta-sekin frazemga aylangan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, xalq orasida frazeologiyalarning yashashi uchun hayotiy asos bo'lishi kerak.

E.A. Katsitadze ishining maqsadi animalizmlarning metaforizatsiya dinamikasini aniqlashdir. Tadqiqot obyekti nemis tilidagi bitta komponentli animalizm metaforalari hamda frazeologizmlardir. Muallif insonni animalizmlar orqali tasvirlashni zoomorfizm deb ataydi. Tadqiqot birliklari sifatida nafaqat oddiy zoometaforalar, balki ularning boshqa barcha turlari: hosil bo'lgan va kompozit zoometaforalar, zoometaforik so'z birikmalari, taqqoslovchi zoofrazeologizmlar, zoofrazeologik ifodalar va zoometafora- takliflari o'rganiladi. U metaforaning paydo bo'lish jarayonlari va yo'llariga to'xtalib o'tadi hamda bu jarayonda ishtirok etuvchi omillarni ko'rib chiqadi[2]. Tadqiqotga eng ko'p ishlatiladigan to'qqizta zoomorfizm kiritilgan bo'lib, ular nemis tilidagi eng aniq tanilgan zoomorfizmlar hisoblanadi. Muallif ularning shakllanish jarayonlarini, manbaini va paydo bo'lish usulini hamda zamonaviy tildagi funksiyalashuvi va rivojlanishini ko'rib chiqadi.

D.G. Maltseva ishida nemis frazeologiyasini lingvostrana tadqiqot yondashuvi ustunlik qiladi; uning bir bo'limi hayvonlar olamidan olingan frazeologik ifodaga bag'ishlangan. D.G. Maltseva hayvonlarning ba'zi xususiyatlarining ularning frazeologik obrazliligini asos qilib olishiga e'tibor

[1]Günter E. Phraseologie. Berlin. 1992. S-13.
[2] Маковский, М.М. Сравнительный словарь мифо-логической символики в индоевропейских языках: Образ мира и миры образов М.М. Маков-ский.- М.: ВЛАДОС. 1996. С-83.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

qaratadi. Ko'p frazeologizmlarning kelib chiqishi yovvoyi va uy hayvonlari, qushlar va hasharotlarning xulq-atvor xususiyatlari bilan bog'liqdir. D.G. Maltseva hayvonlarning ba'zi xulq-atvorlarini tushuntirar ekan, ular aks ettirilgan frazeologik ifodani misol sifatida keltiradi[3]. Shuningdek, rus tili bilan ba'zi sharqiy va g'arbiy tillarda hayvon obrazlarini solishtirish olib boriladi. U zoinimik frazeologik ifodalarining obrazliligi va ichki shakli haqida ma'lum xulosalar qiladi. Frazeologizmning obrazlar tizimi ko'p hollarda xalqning madaniy-historik xususiyatlari bilan belgilangan bo'ladi; atrof-muhitga bog'liq holda lekin ba'zida bu sistemalarni izohlab berish qiyin kechishi mumkin; chunki bunday xususiyatlar ehtimol tasodifiy omillar tufayli paydo bo'lgan.

Brüder Grimm va xalq ertaklari: Nemis xalq ertaklarida ko'plab yovvoyi jonzotlar mavjud, masalan, bo'ri, aslan va tulki. Brüder Grimmning ertaklarida bu hayvonlar ko'pincha moral va axloqiy saboqlarni taqdim etadi. Misol uchun, "Die drei kleinen Schweinchen" (Uch cho'chqa) ertagida, cho'chqalar, ularga yovvoyi bo'ri tomonidan xavf solinishi bilan duch kelishadi. Jonzotlar shu tarzda asarlarning markazida axloqiy o'rgatish uchun ishlatiladi.

Uy hayvon nomlariga oid bir qancha frazeologizmlar mavjud bo'lib, hattoki ular haqida masallar ham mavjud. Hozir shulardan ba'zilarining kelib chiqish tarixi,qay holatlarda qaysi frazeologizmlarning qollanilishi haqida ko'rib chiqamiz. Biroq undan avval nemis tilidagi uy jonzotlari (Haustiere) nomlari bilan tanishib olamiz. Ular quyidagilar: Der Hund – it, die Katze – mushuk, der Pferd – ot, der Esel – eshak, das Schwein – cho'chqa, der Schaf – qo'y, die Ziege – echki, der Kuh – segir, das Kalb – buzoq, der Hamster – xamster, das Kaninchen – quyoncha, der Papagei – to'tiqush va die Maus – sichqon.

Ushbu uy jonzotlaridan eng ko'p it nomi bilan bog'liq frazeologizmlarga duch kelishimiz mumkin. Nemis va o'zbek xalqining o'ziga xos hayot tarzi bilan bog'liq bo'lgan frazemlarini quyidagicha tasniflash mumkin[4]. Nemis va o'zbek tilidagi **"der Hund - it"** animalizmlar kelib chiqishiga, bu ikki xalqning itga bo'lgan mehri sabab bo'lgan. Chunki it qadimdan insonnig sodiq do'sti, ovdagi hamrohi hisoblanib kelingan. Biroq, nemis va o'zbek xalqi uchun it salbiy xususiyatga ham ega ekanligini unutmaslik kerak. Buni quyidagi salbiy bo'yoq berilgan frazeologik birliklarda ko'rishimiz mumkin. Masalan:

- *kein bunter Hund schaut dich an* (sen hech kimga kerak emassan, senga hech kim e'tibor bermaydi);
- *auf den Hund kommen* (ma'nan va ruxan o'zini yo'qotmoq);
- *auf dem Hund sein (*kulfatga chidash)[5].

Quyida yana der Hund(it) nomi bilan bog'liq bir qancha nemis tilidagi frazeologizmlarni hamda ularning o'zbek tilidagi ekvivalentini jadval ko'rinishida bermoqchiman.

Tierische Ausdruck(jonzotlarning frazeologik ifodasi)	**Bedeutung** (ma'nosi)
Wie Kund und Katze	Bir-biriga mos kelmaydigan insonlar

[3] Миронова, И.В. Зоометафора в свете антропоцен-тричности языка (на материале английской лексики) И. В. Миронова Методологические проблемы когнитивной лингвистики. Воронеж: Изд-во Воронежского гос. ун-та, 2001. С. 149-151.

[4] Rahmonova, M. K. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasida yordami O'rta Osiyo ma'naviy-madaniy merosining bir qismi. "Ommaviy navigatsiya texnologiyalarining suv bug'lanishining sferoidlarining global to'planishi" respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi, Toshkent. 2019. 206-209-b.

[5]Jo'raboyev B. B. Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yoritish. Fan va ta'lim.Toshkent. 2020. 215-220-b.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Den letzten beissen die Hunde	Barcha uchun vazifalarni zimmasiga oladigan insonlar
Hundeblick	Vafodorona nigoh
Hundesgemein	O'ta adolatsiz
Da liegt der Hund begraben	Muammo yuzaga kelishi
Das ist ein dicker Hund	Kutilmagan narsa
Hundemüde	Juda charchagan
Hundeelend	Juda yomon

Endi **der Pferd (ot)** so'ziga bog'liq nemis tilidagi frazeologizmlar va ularning ma'nolari hamda qo'llanilishi bilan tanishib chiqamiz:

1. *Das Pferd beim Schwanz aufzäumen*

- Ma'nosi: Ishni noto'g'ri tomondan boshlamoq (so'zma-so'z: "otni dumidan egarlamoq").
- Qo'llanilishi: Ishni to'g'ri tartibda emas, aksincha qilib boshlagan odamlar haqida.
- Misol:

„Wenn du zuerst das Design machst und dann überlegst, was du überhaupt sagen willst, zäumst du das Pferd beim Schwanz auf."

2. *Ein totes Pferd reiten*

- Ma'nosi: Natija bermaydigan ishni davom ettirmoq (so'zma-so'z: "o'lik otni minib yurmoq[6]").
- Qo'llanilishi: Allaqachon foydasiz bo'lgan g'oyani yoki ishni davom ettirishda.
- Misol:

„Wir diskutieren das Thema schon seit Wochen – aber wir reiten ein totes Pferd."

Tarjima mashqi:

1. „Du solltest das Pferd nicht beim Schwanz aufzäumen – fang lieber mit der Planung."
➤ *Ishni dumidan boshlama – yaxshisi, rejalashtirishdan boshla.*

2. „Wir haben genug versucht, aber ich glaube, wir reiten ein totes Pferd."
➤ *Biz yetarlicha harakat qildik, lekin menimcha, biz o'lik otni minib yuribmiz (ya'ni foydasiz ishni davom ettiryapmiz).*

Nemis tilida yovvoyi jonzotlarning xalq va madaniyatdagi roli juda katta. Ular nafaqat folklor va mifologiyada, balki san'at, adabiyot, til va kundalik hayotda ham o'z o'rniga ega. Yovvoyi jonzotlar, o'zining kuchi, aqlli tabiati, yoki qo'rqinchli tasvirlari orqali ko'plab madaniyatlarda muhim rol o'ynaydi. Quyida nemis madaniyatida yovvoyi jonzotlarning roli va ahamiyati haqida ko'proq ma'lumotlar keltirilgan. Nemis mifologiyasida yovvoyi jonzotlar ko'pincha kuch va aqlli tasvirlar sifatida paydo bo'ladi. Yovvoyi jonzotlarning qahramonlar sifatida ko'rsatilishi yoki ularning yovuz yoki xayoliy xususiyatlari ko'pincha yovvoyi hayvonlarning haqiqiy tabiatiga asoslanadi.

Hozir yovvoyi jonzot nomlari bilan bog'liq animalistik frazeologizmlarga ba'zi hayotiy misollarni ko'rib chiqamiz.

Ein Wolf im Schafspelz

Ma'nosi: Tashqaridan begunoh yoki do'stdek ko'ringan, lekin aslida zararli odam

[6] Umarxo'jayev M. O., Azamov. Nemischa-o'zbekcha zoonim komponentli lug'ati. Andijon. 2016. 79-b.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Misol: *Pass auf Karl auf – er ist ein Wolf im Schafspelz. Er tut freundlich, aber er hat andere Absichten.* ("Karlga ehtiyot bo‘l – u qo‘y terisiga o‘ralgan bo‘ri. U do‘stona ko‘rinadi, lekin asl niyati boshqa.")

Jemandem einen Bären aufbinden

Ma’nosi: Kimnidir aldamoq, yolg‘on gapirmoq

Misol: *Er hat mir erzählt, er habe mit dem Bundeskanzler zu Abend gegessen – der wollte mir wohl einen Bären aufbinden!*

"U menga kansler bilan kechki ovqat yeganimni aytdi – meni shunchaki aldamoqchi bo‘ldi!"

Volk (Bo'ri): Nemis mifologiyasida bo'ri ko'plab hikoyalarda salbiy obraz sifatida ishlatiladi, lekin ba'zi mifologiyalarda, ayniqsa Germaniya folklorida, bo'ri kuchli va jasoratli hayvon sifatida tasvirlanadi. "Wolfram von Eschenbach"ning "Parzival" asarida bo'ri ko'plab qahramonlarning zaifliklarini yengish uchun ishlatiladi.

Der Fuchs (Tulki): Tulki nemis folklorida juda ko'p ishlatiladigan hayvon. Tulki ko'pincha aqlli va hiylali sifatida tasvirlanadi. Tulki bir vaqtlarda aqlli, shikast yetkazishga tayyor yovvoyi hayvon sifatida ko'rsatilgan. Nemis tilidagi mashhur ibora *"Der schlaue Fuchs"* ("Ayyor tulki") tulkining bu tasvirini aks ettiradi[7].

Xulosa qilib aytsam frazeologizmlar nemis va o‘zbek xalqining, tarixi, madaniyatini rasm-rusum, urf-odat, uning geografik joylashuviga xos bo‘lgan milliy xususiyatlarni har tomonlama aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Günter E. Phraseologie. Berlin. 1992. S-13.
2. Harald Burger. Phraseologie: eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 4., neu bearb. Aufl. Berlin: Schmidt, 2010. S-239.
3. Jo‘raboyev B. B. Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yoritish. Fan va ta’lim.Toshkent. 2020. 215-220-b.
4. Маковский, М.М. Сравнительный словарь мифо-логической символики в индоевропейских языках: Образ мира и миры образов М.М. Маков-ский.- М.: ВЛАДОС. 1996. С-83.
5. Миронова, И.В. Зоометафора в свете антропоцен-тричности языка (на материале английской лекси-ки) И. В. Миронова Методологические проблемы когнитивной лингвистики. Воронеж: Изд-во Воронежского гос. ун-та, 2001. С. 149-151.
6. Rahmonova, M. K. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasida yordami O'rta Osiyo ma'naviy-madaniy merosining bir qismi. "Ommaviy navigatsiya texnologiyalarining suv bug'lanishining sferoidlarining global to'planishi" respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi, Toshkent. 2019. 206-209-b.
7. Umarxo’jayev M. O., Azamov. Nemischa-o’zbekcha zoonim komponentli lug’ati. Andijon. 2016. 79-b.

[7] Harald Burger. Phraseologie : eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 4., neu bearb. Aufl. Berlin: Schmidt, 2010. S.239